ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SAVDO KONSEPTI DOIRASIDA SINONIMIYA (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

Bozorova Sevara Kamol qizi,
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Savdo faoliyati insoniyat tarixidagi eng qadimiy iqtisodiy jarayonlardan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan birga til tizimida ham muhim leksik qatlamni shakllantirgan. Iqtisodiy munosabatlar, tovar almashinuvi va moliyaviy natijalar til orqali ifodalanar ekan, bu jarayon savdo mazmunli leksik birliklarning keng semantik maydonini yuzaga keltiradi. Bunday birliklar nafaqat iqtisodiy faoliyatni nomlash vazifasini bajaradi, balki til tizimida turli semantik munosabatlarni, xususan sinonimiya hodisasini ham namoyon qiladi. Savdo leksikasida uchraydigan ko'plab birliklar o'zaro yaqin ma'noga ega bo'lsa-da, ularning semantik hajmi, qo'llanish doirasi va stilistik ranggi bir xil emas.

Savdo leksikasida sinonimiya hodisasini yoritishda leksik-semantik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olima I. A. Siddiqova sinonimlarni aniqlashda ularning matndagi funksional xususiyatlariga e'tibor qaratib, bunday birliklarning ayrim kontekstlarda o'zaro almashish imkoniyatini muhim mezon sifatida ko'rsatadi.[1]

Aynan iqtisodiyot terminologiyasida sinonimiya hodisasini chuqur tahlil qilgan O. S. Ahmedov ingliz tilidagi nisbatan standartlashgan terminologik tizim bilan o'zbek tilidagi variantlilik va uslubiy rang-baranglik o'rtasidagi farqlarni aniq misollar orqali ko'rsatib bergan.[2] Jumladan, *pul, aqcha, mablag' – money; ahdnoma, bitim, shartnoma, kelishuv – contract; daromad, foyda, kirim, tushum – income; sarf, xarajat, chiqim – expense.* Bu esa savdo leksikasining har ikki tilda qanday shakllanishi va rivojlanishini tushunishda muhim ilmiy asos yaratadi.

Sinonimiya tilning semantik tizimini boyituvchi muhim hodisalardan biri hisoblanadi. Yaqin ma'noli birliklar orqali bir xil yoki o'xshash tushunchalar turli nuqtai nazardan ifodalanadi, bu esa tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, savdo va iqtisodiyot sohasida sinonimik birliklar terminologik aniqlik, stilistik farqlanish yoki qo'llanish konteksti bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, o'zbek tilida «savdo» va «tijorat», «foyda» va «daromad», «tovar» va «mahsulot» birliklari ma'no jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning semantik chegarasi va qo'llanish doirasi bir xil emas. Shunga o'xshash holat ingliz tilida ham kuzatiladi, ya'ni «trade» va «commerce», «profit» va «income», «goods» va «merchandise» kabi birliklar umumiy semantik asosga ega bo'lsa-da, ular iqtisodiy diskursda turlicha funksional vazifani bajaradi.

Savdo leksikasidagi bunday sinonimik birliklarni qiyosiy jihatdan o'rganish til tizimida iqtisodiy tushunchalarning qanday strukturalashganini aniqlashga yordam beradi. Mazkur **maqolaning maqsadi** o'zbek va ingliz tillarida savdo mazmunli sinonimik birliklarni aniqlash hamda ularning semantik o'xshashlik va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tilshunoslikda sinonimlar odatda ma'lum bir tushunchani ifodalovchi, ammo semantik jihatdan to'liq teng bo'lmagan, balki ma'no nozikliklari bilan farqlanuvchi birliklar sifatida talqin qilinadi. Bunday birliklar sinonimik qatorni tashkil etadi. Sinonimik qator tarkibidagi so'zlar umumiy semantik yadroni saqlab qoladi, biroq ularning har biri ma'lum bir farqlovchi semaga ega bo'ladi. Ana shu farqlovchi semalar sinonimlar o'rtasidagi semantik tafovutni yuzaga keltiradi. Natijada sinonimik birliklar bir-birini to'liq almashtira olmaydi, balki ma'lum kontekstlarda ma'no aniqligini ta'minlaydi.

Savdo leksikasida sinonimiya hodisasi iqtisodiy faoliyatning murakkab va ko'p qirrali xarakteri bilan bog'liq bo'lib, til tizimida turli leksik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Bu birliklar bir-biriga yaqin iqtisodiy tushunchalarni ifodalaydi, biroq ularning qo'llanish doirasi, terminologik aniqligi va stilistik xususiyatlari farq qiladi. Shu sababli savdo leksikasiga doir ba'zi so'zlar kundalik iqtisodiy faoliyatni tasvirlashda keng qo'llanilsa, ularning sinonimlari ilmiy, rasmiy yoki professional diskursda ishlatiladi.

O'zbek tilidagi «savdo» va «tijorat» birliklari umumiy ma'noda tovar almashinuvi jarayonini bildi-

[1] Сиддикова И. А. Синонимия языка и её кодификационные основы: дис. …д-ра филол. наук. – Ташкент, 2012. – 408 с.
[2] Ахмедов О. С. Иқтисодиёт терминологиясида синонимия (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) // Филология масалалари. – 2018. – № 1. – Б. 39.

radi. Biroq «savdo» so‘zi kengroq qo‘llanadigan umumiy birlik bo‘lib, kundalik nutqda «savdo bozori», «savdo kompleksi», «savdo shoxobchasi» kabi birikmalarda faol ishlatiladi. «Tijorat» esa ko‘proq rasmiy yoki terminologik birlik sifatida qo‘llanadi va «tijorat banki», «tijorat tashkiloti» kabi so‘z birikmalari tarkibida iqtisodiy faoliyatning tashkil etilgan shaklini ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ingliz tilidagi «trade» va «commerce» birliklari yaqin ma’noga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish konteksti va semantik hajmi ham bir xil emas. «Trade» so‘zi ko‘proq umumiy savdo faoliyatini, ayniqsa, tovar almashinuvi jarayonini bildiradi. Xususan, «international trade», «trade relations», «trade agreement» kabi birikmalarda bu so‘z keng qo‘llanadi. «Commerce» esa ko‘proq rasmiy yoki iqtisodiy termin sifatida ishlatiladi va kengroq iqtisodiy faoliyatni, ya’ni ishlab chiqarish, taqsimot va savdo jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi tizimni ifodalaydi. Demak, har ikkala tilda ham umumiy savdo jarayonini ifodalovchi sinonimlar mavjud bo‘lib, ulardan biri asosan umumiy, ikkinchisi esa terminologik yoki rasmiy xarakterga ega.

Savdo jarayonidagi subyektlarni ifodalovchi sinonimik birliklarning farqlari asosan kontekstual, stilistik va funksional nuanslarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek tilidagi «xaridor» va «mijoz» leksemalari tovarni sotib oluvchi shaxsni bildiradi. Ushbu sinonimlarning farqi shundaki, «xaridor» kengroq, umumiy kontekstda ishlatiladi va ko‘proq rasmiy-huquqiy nutqda uchraydi. «Mijoz» leksemasi esa odatda xizmat ko‘rsatish sohasiga oid subyektni ifodalashda qo‘llaniladi. Misol uchun, *«Bank mijozlari uchun yangi xizmatlar joriy etildi»*. Shu bilan birga, «mijoz» so‘zi ijtimoiy va madaniy nuansga ega bo‘lib, insoniy aloqani ta’kidlaydi.

Ingliz tilidagi «customer» va «client» so‘zlarida ham yuqoridagi kabi farqlar kuzatiladi. «Customer» so‘zi odatda chakana savdo jarayonida tovar yoki xizmatni sotib oluvchi shaxsni bildiradi: *«The customer purchased the goods»*. «Client» esa professional xizmatlardan foydalanuvchi va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot bilan nisbatan barqaror munosabatga ega bo‘lgan subyektni ifodalaydi: *«The law firm provides advice to its clients»*. Stilistik farqi shundaki, «client» rasmiy va professional kontekstni bildiradi, «customer» esa kengroq kundalik nutqda ishlatiladi.

Yuqoridagi misollar asosida aytish mumkinki, har ikki tilda sinonimik birliklar asosiy nominativ vazifani bajaradi, ya’ni savdo subyektini nomlaydi. Lekin ularning ishlatilish sohasi, kontekstual mosligi va stilistik ohangi turlicha. Bu farqlar terminologik aniqlikni va nutqning kommunikativ mosligini ta’minlaydi, shuning uchun savdo leksikasida sinonimiya nafaqat semantik yaqinlik, balki konseptual va funksional noziklikni ham aks ettiradi.

Savdo natijasini ifodalovchi birliklarda ham sinonimiya kuzatiladi. O‘zbek tilida «foyda» va «daromad» so‘zlari semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, «foyda» odatda savdo yoki iqtisodiy faoliyat natijasida olingan sof iqtisodiy natijani bildiradi. «Daromad» esa kengroq tushuncha bo‘lib, har qanday moliyaviy tushumni anglatishi mumkin. Masalan, savdo faoliyatidan olingan mablag‘ daromad hisoblanadi, biroq undan xarajatlar ayrilgandan keyin qolgan qismi foyda sifatida baholanadi.

Ingliz tilida bu semantik farq «profit» va «income» birliklari orqali ifodalanadi. «Profit» savdo yoki biznes faoliyati natijasida olingan sof moliyaviy natijani bildiradi. «Income» esa umumiy tushum yoki kirim ma’nosini anglatadi va turli manbalardan kelib tushgan mablag‘ni ifodalashi mumkin. Demak, har ikki tilda ham iqtisodiy natijani ifodalovchi sinonimlar mavjud bo‘lsa-da, ularning semantik chegarasi aniq farqlanadi.

Savdo predmetlarini ifodalovchi birliklarda ham sinonimik munosabat kuzatiladi. O‘zbek tilida «tovar», «mahsulot» va ayrim kontekstlarda «mol» so‘zlari yaqin ma’noli birliklar sifatida ishlatiladi. «Tovar» asosan savdo uchun mo‘ljallangan buyum yoki mahsulotni bildiradi. «Mahsulot» esa ishlab chiqarish natijasida yaratilgan buyumni anglatadi va u har doim ham savdo uchun mo‘ljallangan bo‘lmasligi mumkin. «Mol» so‘zi esa ayrim savdo kontekstlarida umumiy savdo buyumlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Ingliz tilida bu semantik maydon «goods», «merchandise» va «products» birliklari orqali ifodalanadi. «Goods» odatda savdo qilinadigan moddiy buyumlarni bildiradi. «Merchandise» esa ko‘proq chakana savdo kontekstida ishlatiladigan termin bo‘lib, do‘konlarda sotiladigan tovarlarni anglatadi. «Products» esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ifodalovchi umumiy birlik hisoblanadi. Shunday qilib, har ikki tilda ham savdo predmetlarini ifodalovchi sinonimik birliklar mavjud bo‘lib, ularning farqi asosan semantik hajm va qo‘llanish kontekstida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, o‘zbek va ingliz tillaridagi savdo leksikasida sinonimiya hodisasi o‘xshash semantik tamoyillarga asoslanadi. Ikkala tilda ham yaqin ma’noli birliklar iqtisodiy jarayon, subyektlar, moliyaviy natija va savdo predmetlarini ifodalashda qo‘llanadi. Biroq bu birliklar ma’no hajmi, terminologik aniqligi hamda qo‘llanish uslubi jihatidan farqlanadi. Shu jihatlar savdo terminologiyasining semantik tuzilishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sinonimik birliklarning funksional xususiyatlari ularning iqtisodiy diskursdagi rolini ham belgilaydi. Savdo terminologiyasida ayrim so‘zlar asosiy termin sifatida ishlatilsa, boshqalari shu ter-

minning semantik variantlari yoki kontekstual muqobillari sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada sinonimik birliklar iqtisodiy tushunchalarni turli semantik nuqtai nazardan ifodalash imkonini beradi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi savdo leksikasiga oid sinonimik birliklarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala til tizimida ham iqtisodiy faoliyatni ifodalashda yaqin ma’noli leksik birliklar muhim rol o‘ynaydi. Savdo jarayoni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lgani sababli turli semantik vositalar orqali ifodalanadi va natijada sinonimik qatlam shakllanadi. Bunday birliklar umumiy semantik asosga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi, ma’no hajmi va funksional xususiyatlari bilan farqlanadi.

Umuman olganda, savdo leksikasidagi sinonimik birliklarning qiyosiy o‘rganilishi har ikki tilning iqtisodiy terminologiya tizimini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bunday tahlil savdo konseptining til tizimidagi semantik strukturasini ochib berish bilan birga, o‘zbek va ingliz tillarida iqtisodiy tushunchalarning qanday ifodalanishini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi savdo mazmunli leksik birliklarga doir sinonimiya hodisasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda savdo jarayoni, sohaga oid subyektlar va predmetlarni ifodalovchi sinonimik birliklar aniqlanib, ularning semantik o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tahlil jarayonida sinonimlarning ma’no hajmi, qo‘llanish konteksti va stilistik xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari savdo leksikasining har ikki til tizimida semantik jihatdan boy va tizimli ekanini ko‘rsatadi hamda iqtisodiy terminologiyani lingvistik jihatdan o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Resume. This article provides a comparative analysis of the phenomenon of synonymy within trade-related lexical units in Uzbek and English. The study identifies synonymous units representing the trade process, its participants, and objects, and examines their semantic similarities and differences. The analysis focuses on the scope of meaning, contextual usage, and stylistic features of synonyms. The results demonstrate that trade vocabulary in both languages is semantically rich and systematically organized, highlighting its significant role in the linguistic study of economic terminology.

Резюме. В данной статье проводится сопоставительный анализ явления синонимии в лексических единицах, относящихся к сфере торговли в узбекском и английском языках. В исследовании выявляются синонимические единицы, обозначающие торговый процесс, его участников и объекты, а также рассматриваются их семантические сходства и различия. В ходе анализа определяются объём значения, контекстуальные условия употребления и стилистические особенности синонимов. Результаты исследования показывают, что торговая лексика в обеих языковых системах характеризуется семантическим богатством и системностью, что свидетельствует о её значимой роли в лингвистическом изучении экономической терминологии.